Annotatsiya: Ushbu maqola rus va o'zbek tillaridagi chorvachilik terminlarining lingvistik tabiati, ularning struktur-morfologik tuzilishi hamda semantik tasnifini qiyosiy yondashuv asosida tahlil qiladi. Tadqiqotda terminlarning shakllanish manbalari, milliy-madaniy omillar ta'siri, leksikografik manbalardagi aks etishi hamda tarjimada kuzatiladigan moslik va nomoslik holatlari tizimli o'rganilgan. Metod sifatida qiyosiy-semasiologik tahlil, struktur modellashirish va leksikografik monitoring qo'llanilgan. Natijalar chorvachilik terminlarining rus tilida sanoatlashgan agrar tizimga tayanishini, o'zbek tilida esa etnolingvistik qatlarning ustuvorligini ko'rsatadi. Maqola ikki tilda qo'llaniladigan terminlarning mazmuniy parallelizmi, farqlovchi belgilari va tarjima jarayonidagi adekvatlik darajasi bo'yicha yangi ilmiy xulosalarni taklif etadi. Olingan natijalar qiyosiy tilshunoslik, agrar terminologiya va tarjimashunoslik sohaslarida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: chorvachilik terminlari; qiyosiy tilshunoslik; semantik tahlil; leksikografiya; nomlash mexanizmi; rus tili; o'zbek tili.

Abstract: This article presents a comparative linguistic analysis of livestock terminology in Russian and Uzbek. It examines structural-morphological patterns, semantic classifications, sources of term formation, and the influence of national-cultural factors on the terminology of both languages. The methodology is based on comparative semasiological analysis, structural modeling, and lexicographic monitoring. The findings reveal that Russian livestock terminology is shaped largely by an industrialized agricultural system, whereas Uzbek terminology reflects ethnolinguistic traditions. The study introduces new insights into semantic parallelism, distinguishing semantic features, and the adequacy of cross-linguistic translation. The results have practical significance for comparative linguistics, agricultural lexicography, and translation studies.

Key words: livestock terminology; comparative linguistics; semantic analysis; lexicography; nomination mechanisms; Russian language; Uzbek language.

Аннотация: В статье представлен сопоставительный анализ животноводческой терминологии в русском и узбекском языках. Исследуются структурно-морфологические модели терминов, их семантическая классификация, источники формирования, а также влияние национально-культурных факторов на развитие терминологических систем. Методологическую основу исследования составляют сравнительный семасиологический анализ, структурное моделирование и лексикографический мониторинг. Полученные результаты показывают, что русская терминология преимущественно отражает индустриализированную модель животноводства, тогда как узбекская терминология базируется на этнолингвистических традициях. В статье представлены новые выводы относительно семантического параллелизма, дифференциальных признаков и степени адекватности межъязыкового перевода. Материалы исследования обладают практической значимостью для сравнительного языкознания, лексикографии и теории перевода.

Ключевые слова: термины животноводства; сравнительная лингвистика; семантический анализ; лексикография; механизмы номинации; русский язык; узбекский язык.

KIRISH

Til sistemasida terminologiya qatlamining chuqur o'rganilishi zamonaviy lingvistikaning eng faol yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, agrar sohalarga oid maxsus leksika xalqning turmush tarzi, xo'jalik madaniyati va tarixiy tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning tilda qanday shakllanishi va qanday semantik yuk ko'tarishini tahlil qilish muhim ilmiy vazifa sanaladi. Chorvachilik terminlari o'z mazmuni va funksional xususiyatiga ko'ra, har ikki tilda – rus va o'zbek tillarida – milliy qarashlar, mehnat amaliyoti va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklardir.



So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi va chorvachilikka oid atamalar nafaqat kasbiy muhitda, balki ilmiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlarda ham faol qo'llanila boshladi. Bu esa terminlarning mazmuniy aniqligi, me'yorlanganligi va ikki tilda adekvat ifodalanishini ta'minlashni talab etadi. Rus tilidagi chorvachilik terminlari ko'proq sanoatlashtirilgan ishlab chiqarish modeliga bog'langan bo'lsa, o'zbek tilidagi atamalar asosan etnolingvistik an'analar, ko'hna chorvachilik amaliyoti va mahalliy hayot tarzining o'ziga xos ko'rinishlariga tayanadi. Shu sababli ikki tildagi terminlarning tuzilishi, kelib chiqishi va mazmuniy ko'lami sezilarli darajada farqlanadi.

Bugungi tilshunoslikda terminlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki konseptual bilimlar tizimini shakllantiruvchi lingvokognitiv birlik sifatida ham talqin qilinmoqda. Shunday ekan, chorvachilik terminlarini qiyosiy o'rganish ikki tildagi agrar konseptlar, semantik kategoriya va nomlash mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ikki tilli lug'atlar, izohli manbalar va amaliy tarjimalarda uchraydigan nomuvofiqliklarni bartaraf etish ham ilmiy, ham amaliy muhim vazifadir.

Ushbu tadqiqot aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib, rus va o'zbek tillarida qo'llaniladigan chorvachilik terminlarining lingvistik tabiatini qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi terminlarning tarixiy shakllanishi, leksik-semantik tizimi, mavzuviy guruhlar, milliy-madaniy omillar bilan bog'liqligi va tarjima jarayonidagi adekvatlik masalalarini kompleks o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Chorvachilik sohasining iqtisodiy va texnologik rivoji bilan birga terminlarning yangilanishi, yangicha ma'no kasb etishi va lug'atlarda qayta talqin qilinishi ham tadqiqot mavzusini yanada ahamiyatli qiladi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil ikki tildagi terminologik tizimlarning o'zaro yaqin va farqli jihatlarini aniqlash, terminlarning izchil qo'llanilishini ta'minlash, tarjimada xatolarning oldini olish va lingvokulturologik tafakkurni ochib berish imkonini beradi. Chorvachilik terminologiyasi bir qarashda tor kasbiy qatlamga tegishli bo'lib tuyulsa-da, unda xalqning tarixiy tajribasi, an'anaviy xo'jalik modeli, turmush tarzi, tabiatga munosabat va madaniy qadriyatlar sistemasi mujassamdir. Shuning uchun mazkur terminlarni chuqur tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki etnografik va madaniy ahamiyatga ham ega. ^[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus va o'zbek tillarida chorvachilik terminlarining shakllanishi va ularning semantik xususiyatlarini o'rganishda terminologiya va qiyosiy tilshunoslik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar muhim manba vazifasini bajaradi. Yusupov U. K. o'z ishlarida O'zbekiston tilshunosligida qiyosiy yondashuvning rivoji, terminologik birliklarning milliy xususiyatlari va ikki tilning semantik tizimi o'rtasidagi farqlarni aniqlashning ilmiy asoslarini bayon qiladi. Uning fikricha, terminlar mazmuni ularni shakllantirgan madaniy va tarixiy kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat ayniqsa chorvachilik kabi an'anaviy tajribaga tayanadigan sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, Yuldashev I. tomonidan o'zbek terminologiyasining shakllanish jarayonlari, tarixiy qatlamlari va me'yorlanish tamoyillari chuqur yoritilgan bo'lib, u chorvachilik leksikasining milliy konseptual asosini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Terminologiyaning umumiy nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham ushbu mavzuni yoritishda katta ahamiyatga ega. Shelov S. D. terminlarning ta'rifi, ularning tushuncha tarkibi va terminologik tizimlarning tuzilish qonuniyatlarini tahlil qilib, maxsus leksikaning shakllanishidagi semantik va struktur mexanizmlarni izohlaydi. Shevchuk V. N. esa turli sohalarida, jumladan texnik va harbiy terminologiyada yasalma birliklarning paydo bo'lish mexanizmlarini o'rganib, affiksial va kompozitsion modellarni tahlil qiladi; bu yondashuv rus tilidagi chorvachilik terminlarining murakkab struktur tuzilishini tushunishda qo'l keladi. Chistyuxina S. N. tomonidan termin tizimlaridagi polisemiya, mavzulararo ma'no siljishlari va terminlarning kontekstual xarakteri bo'yicha berilgan ilmiy xulosalar esa chorvachilik terminlarida uchraydigan semantik farqlarning tabiati va ularning funksional o'zgaruvchanligini yoritishda qo'llaniladi.

Lingvokulturologik manbalar chorvachilik terminlarining madaniy ildizlarini tushuntirishda alohida o'rin tutadi. Xolmonova Z., Saidxmedova O. va Nurillayeva O. tomonidan berilgan lingvokulturologik konseptlar tahlili til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy qarashlar o'zbek tilidagi chorvachilik terminlarining milliy tafakkur, xo'jalik tajribasi va qadimiy turmush tarzi bilan bog'liqligini asoslashga imkon beradi. O'z navbatida, rus tilidagi terminlar industrial chorvachilik tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli, ushbu manbalar qiyosiy tahlil uchun nazariy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari qiyosiy tilshunoslik, semasiologiya, leksikologiya va terminografiya sohalariga tayangan holda shakllantirildi. Chorvachilik terminlari ikki tilda – rus va o'zbek tillarida – o'ziga xos lisoniy tizimga ega bo'lgan maxsus leksika sifatida baholangani uchun ularning tuzilmasi, mazmun ko'lami, semantik maydoni va nomlash mexanizmlarini aniqlash ko'p yo'nalishli ilmiy yondashuvni talab etdi. Shu bois tadqiqot bir nechta o'zaro bog'langan metodlar majmuiga asoslandi. Birinchi bosqichda materiallarni

tanlash va saralash amalga oshirildi. Bunda rus va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan maxsus lug'atlar, izohli manbalar, sohaviy risolalar, chorvachilikka oid metodik qo'llanmalar hamda davlat standartlariga kiritilgan terminlar bazasi o'rganildi. Terminlar tanlanayotganda ularning qo'llanish chastotasi, zamonaviylik darajasi, ikki tilda mavjud bo'lgan yoki faqat bitta tilga xos birliklar hisobga olindi.

Keyingi bosqichda qiyosiy-semasiologik tahlil qo'llandi. Bu yondashuv orqali ikki til terminlarining ma'no tuzilishi, semantik yadrosi, differensial belgilari, kengaygan va toraygan semalari, mavzuviy guruhlardagi o'rni aniqlab chiqildi. Terminlarning qaysi biri universal, qaysi biri milliy belgiga ega ekani ana shu bosqichda aniq belgilandi. Tadqiqotning muhim qismi sifatida strukturaviy-morfologik tahlil qo'llanilib, terminlarning yasash modellariga baho berildi. Rus tilidagi kompleks terminlar, affiksalar yasama birliklar, kompozit strukturalar va abbreviaturalar o'zbek tilidagi sodda, qo'shma va birikma terminlar bilan qiyoslab o'rganildi. Bu jarayon ikki tilda termin yaratishning ichki qonuniyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Shuningdek, leksikografik monitoring usuli qo'llanilib, terminlarning zamonaviy lug'atlardagi ifodalanish shakli, izoh berish modeli, tarjima variantlari va mavjud nomuvofiqliklar baholandi. Ayrim terminlarning bir til lug'atlarida keng yoritilib, boshqa til lug'atlarida cheklangan talqinda keltirilgani kuzatildi. Bu holat terminlarning ilmiy muomaladagi izchilligi va standartlashuviga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida qayd etildi^[3]. Tadqiqotning amaliy bosqichida tarjima tahlili usuli qo'llandi. Rus-o'zbek terminlarining adekvat tarjimasi, muqobil variantlari, ta'rifiy tarjima talqinlari, strukturaviy o'zgartirishlarga ehtiyoj tug'diruvchi birliklar alohida o'rganildi. Adekvatlik darajasi aniqlanganda semantik moslik, funksional birxillik va mavzuviy butunlik mezonlari asosiy ko'rsatkich bo'ldi.

Metodologiyaning yakuniy elementi sifatida lingvokulturologik tahlil o'tkazilib, chorvachilikka oid terminlarning orqasida turgan madaniy konseptlar, xalq hayot tarzi va tarixiy tajribani aks ettiruvchi belgilar baholandi. O'zbek tilidagi ko'plab terminlar an'anaviy chorvachilik amaliyotiga tayanishi, rus tilidagi terminlar esa sanoatlashtirilgan texnologik jarayonlarni aks ettirishi aniqlangan holda ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu metodlarning uyg'unlashuvi terminlarning lingvistik tabiatini har tomonlama yoritish, ikki til materiallari asosida aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi^[5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida rus va o'zbek tillaridagi chorvachilik terminlari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi va ularning lingvistik tabiati bo'yicha bir qator asosiy ilmiy natijalar aniqlandi.

Ikki til terminologik tizimining shakllanish manbalari sezilarli darajada farqlanishi ma'lum bo'ldi. Rus tilidagi terminlar, asosan, sanoatlashtirilgan chorvachilik, texnologik jarayonlar va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq terminlar orqali boyigan bo'lsa, o'zbek tilidagi terminlar etnik-madaniy tajribaga, an'anaviy chorvachilik amaliyotiga, mahalliy turmush tarziga xos leksik qatlam bilan to'yingan. Bu farq ikki tilning agrar tajribasi turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Rus tilidagi chorvachilik terminlari ko'proq texnologik kategoriyalar (sut yetishtirish texnologiyasi, zotlashtirish, seleksiya, kasallik diagnostikasi) bo'yicha tizimlashgan bo'lsa, o'zbek tilidagi terminlar chorva turlari, yosh-jins belgilari, rang va tashqi belgilarga oid milliy tasnif asosida rivojlangan. Masalan, o'zbek tilidagi "qo'y", "echki", "bo'taloq", "bug'oz", "qochirim" kabi terminlar semantik jihatdan an'anaviy xo'jalikda muhim funksiyani bajargan bo'lsa, rus tilida "отёл", "пастбищное содержание", "комбикорм", "животноводческий комплекс" kabi terminlar industrial tizimga yo'naltirilgan.

Rus tilida affiksalar yasama terminlar (-ник, -ность, -овой, -ческий) va kompozit strukturalar keng uchrasa, o'zbek tilida sodda terminlar hamda qo'shma so'zlar (qo'yboqar, qo'yxo'r, tuyachi) ustunlik qildi. Rus tilida uch komponentli yoki undan ortiq murakkab termin birliklari ko'p uchrashdi, o'zbek tilida esa ixcham, semantik jihatdan zich birliklar ustunligi kuzatildi. Ikki tilda mavjud terminlarning lug'atlardagi talqinida ayrim mos kelmasliklar kuzatildi. Ba'zi o'zbekcha terminlar ruscha lug'atlarda faqat qisqa izoh bilan berilgan, ayrim ruscha terminlar o'zbek lug'atlarida faqat tarjima tarzida keltirilgan bo'lib, bu ilmiy muomala uchun yetarli aniqlikni ta'minlamaydi. Shuningdek, o'zbek tilidagi ayrim milliy terminlar rus tilida to'liq ekvivalentga ega emasligi sababli ta'rifiy tarjima talab qilinadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ba'zi terminlar ikki til o'rtasida to'liq muqobilga ega (masalan, "ot - лошадь", "sut - молоко"), ammo qator terminlar milliy-madaniy mazmun sababli to'g'ridan-to'g'ri tarjimini qabul qilmaydi. Masalan, "sa'y" (yangi tug'ilgan tuya bolasi) yoki "bo'taloq" (yangi tug'ilgan mol bolasi) kabi terminlar rus tilida ta'rifiy izoh berilishini talab qiladi. Bunday terminlar lingvokulturologik tafovutning mavjudligini tasdiqlaydi. Rus tilidagi chorvachilik leksikasi ilmiy maqolalar, texnik standartlar, agrar normativ hujjatlar va sanoat jarayonlarida faol qo'llanilsa, o'zbek tilida terminlarning bir qismi og'zaki muomalada va an'anaviy ishlab chiqarish jarayonida keng qo'llanadi. Bu holat ikki tilning terminologik maydonida funksional diversifikatsiyaning mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi chorvachilik terminlarida xalqning qadimiy yaylov madaniyati, chorva turlarini kuzatish, parvarishlash va tasniflashga oid ko'p asrlik tajribasi aks etgani aniqlandi. Rus tilida esa intensiv ishlab chiqar-



rish, texnologiyalashgan yetishtirish va qonunlashtirilgan standartlar asosiy o'rinda turadi. Bu farqlar ikki tildagi terminologik tizimning tarixiy va madaniy ildizlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Mazkur natijalar chorvachilik terminologiyasining ikki tilda turlicha shakllanganini, leksik-semantik tuzilmalarning universal va milliy qatlamlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Shu bilan birga, terminologik moslikni ta'minlash, tarjima jarayonini standartlashtirish va terminlar tizimini optimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllandi [5].

Olingan natijalar rus va o'zbek tillaridagi chorvachilik terminologiyasining shakllanishi, semantik tuzilishi va funksional qo'llanilishida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu farqlar, avvalo, ikki tilning tarixiy rivoji, xo'jalik modeli va madaniy tajribasining turlicha yo'nalishlarda shakllanganidan dalolat beradi. Mazkur bo'limda natijalar chuqur tahlil qilinib, ularning ilmiy talqini, mavjud nazariyalar bilan bog'liqligi va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Birinchi jihat shundan iboratki, chorvachilik terminlarining shakllanishida madaniy omil muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilidagi terminlar ko'p hollarda an'anaviy chorvachilik modeli ko'chmanchi yaylov madaniyati, nasl ajratish, yosh-jins belgilari va ko'hna xo'jalik amaliyotiga tayanadi. Bu terminlar ko'proq aniq tasnifiy belgilar, tashqi ko'rinish, yosh, holat, zot yoki rangga oid nuqtai nazar bilan nomlanadi. Rus tilidagi terminlar esa, aksincha, sanoatlashtirilgan chorvachilik tizimi, seleksiya jarayonlari, texnologik qurilma va ishlab chiqarish komplekslarining terminlari bilan boyigan. Bu farq lingvokulturologik qarama-qarshilik emas, balki har ikki tilning agrar tajribasidan kelib chiquvchi tabiiy lisoniy holat ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchi jihat semantik maydonlarning tuzilishidagi tafovut. O'zbek tilida chorvachilik atamaları ko'proq tirik mavjudotga oid antropotsentrik tasnif asosida shakllanadi: yosh, jins, tana alomatları, hayvonning maqsadi yoki ahvoli asosiy semalar sifatida ajralib turadi. Rus tilidagi terminlar esa texnik va jarayon markazli tasnif asosida shakllanadi: parvarishlash tizimi, ishlab chiqarish jarayoni, oziqlantirish rejimlari, seleksiya texnologiyasi va veterinariya diagnostikasi bilan bog'liq birliklar ustunlik qiladi. Bu farqlar ikki tilning termin maydonining semantik yadrosini belgilab beradi.

Uchinchi jihat terminlarning morfologik qurilishi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, rus tilida murakkab kompozit birliklar va affiksalar yasama terminlar yuqori ulushni tashkil qiladi. Bu, bir tomondan, rus tilining polisindetik yasash imkoniyatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, sanoat jarayonlarini aniq va batafsil ifodalash ehtiyoji bilan izohlanadi. O'zbek tilida esa terminlar ixcham, yengil, ma'nosi zich bo'lgan sodda yoki qo'shma birliklar ko'rinishida shakllanadi. Bu ikki tilning morfologik paradigmaları orasidagi strukturaviy tafovutni tasdiqlaydi.

To'rtinchi jihat tarjima jarayonida uchraydigan ayrim nomuvofiqliklar. Rus tilidagi bir qator murakkab terminlar o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, mazmun torayib ketadi; o'zbek tilidagi milliy birliklar esa rus tiliga ta'rifiy tarzda o'tkazilishni talab qiladi. Demak, ikki til o'rtasida semantik adekvatlik darajasi har bir terminning turiga ko'ra o'zgaradi. Bu holat tarjima nazariyasi uchun muhim xulosa bo'lib, chorvachilik terminologiyasining tarjimasi maxsus metodik yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi.

Beshinchi jihat terminlarning funksional qo'llanilishidagi diversifikatsiya. Rus tilidagi terminlarning ilmiy va texnik matnlarda keng qo'llanishi, o'zbek tilida esa ayrim terminlarning asosan og'zaki nutqda saqlanishi ikki tilning terminologik tizimlarida standartlashuv darajasi turlicha ekanini ko'rsatadi. Bu esa leksikografiya va normativ hujjatlar tayyorlashda aniq ilmiy yondashuvni talab etadi.

Yakuniy ilmiy mulohaza shuni ko'rsatdiki, chorvachilik terminologiyasining ikki tildagi qiyosiy o'rganilishi nafaqat lingvistik tafovutlarni ochib beradi, balki soha mutaxassislari uchun terminlarni izchil qo'llash, aniq tarjima qilish va terminologiyani rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Har ikki tilning tarixiy va madaniy tajribasi terminologiyada o'z aksini topgani, ularning o'zaro muvofiqligi va farqlarini belgilash esa ilmiy izlanishlarning yangi bosqichlari uchun asos yaratadi [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rus va o'zbek tillaridagi chorvachilik terminlarining qiyosiy tahlili ularning shakllanish manbalari, semantik tuzilishi, morfologik xususiyatlari va funksional qo'llanilishida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Har ikki tilning terminologik tizimi o'zining tarixiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy tajribalariga tayangan holda rivojlangan bo'lib, bu jarayon terminlarning mazmun ko'lami va nomlash mexanizmlarida yaqqol aks etgan. O'zbek tilidagi chorvachilik terminlarida milliy tajriba, an'anaviy xo'jalik modeli va turmush tarziga bog'liq tasnifiy belgilar ustuvorlik qilsa, rus tilidagi terminlar ko'proq industrial chorvachilik, texnologik jarayonlar va standartlashtirilgan ilmiy leksika bilan boyigan.

Tahlil jarayonida semantik maydonlarning shakllanishi ikki til uchun turlicha tamoyillarga asoslanganini ko'rish mumkin bo'ldi. O'zbek tilida tirik mavjudotning faoliyat xususiyatlari, yosh-jins belgilari, tashqi ko'rinishi va an'anaviy amaliyot markazda tursa, rus tilida jarayon, texnologiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan



bog'liq kategoriyalar ustunlik qiladi. Bu ikki tilning agrar konseptual maydonlari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularning terminologik ifodasi turlicha yo'nalishda shakllanganini tasdiqlaydi.

Morfologik jihatdan ham ikki til o'rtasida aniq farqlar mavjud. Rus tilida murakkab kompozit birliklar, affiksalar yasama terminlar va ko'p komponentli strukturalar keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilidagi terminlar ixcham, semantik zich va ko'pincha bir yoki ikki komponentli birliklar orqali ifodalanadi. Bunday farqlar terminlarni qo'llash amaliyotida ham namoyon bo'ladi: ruscha terminlar asosan ilmiy–texnik matnlarda faol ishlatilsa, o'zbekcha terminlarning bir qismi og'zaki nutqda, an'anaviy chorvachilik amaliyotida keng qo'llanadi.

Tarjima jarayonida esa terminlarning to'g'ridan-to'g'ri mos ekvivalentga ega bo'lmasligi ikki tildagi lingvokulturologik tafovut bilan izohlanadi. Ayrim o'zbekcha terminlar milliy mazmunning zichligi sababli rus tilida faqat ta'rifiy yo'l bilan ifodalanadi, ruscha murakkab terminlar esa o'zbek tilida mazmunni toraytirmaslik uchun moslashtirilgan tarjimani talab qiladi. Shu bois, chorvachilik terminologiyasida adekvat tarjimani ta'minlash maxsus metodik yondashuvni zarur qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot chorvachilikka oid terminlarning ikki tilda o'ziga xos shakllanishini, ularning semantik tizimi va leksikografik talqinidagi farqlarni aniqlab, lingvistik, amaliy va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan muhim ilmiy xulosalar chiqardi. Ushbu natijalar terminologiya tizimini standartlashtirish, ikki tilli lug'atlarni boyitish, agrar sohaga oid tarjimalar sifatini oshirish hamda chorvachilik leksikasini kelgusida yanada chuqurroq o'rganish uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–120-son, 08.02.2022.
2. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish.
3. Yusupov U. K. Razvitie sravnitel'nogo yazykoznaniya v Uzbekistane // Qiyosiy tilshunoslik: an'analar va istiqbol. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari, 26–27 oktabr 2006. – B. 115.
4. Yuldashev I. O'zbek kitobchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish. Filol. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2005.
5. Shelov S. D. Opredelenie terminov i ponyatiynaya struktura terminologii. – Sankt-Peterburg, 1998. – 236 s.
6. Shevchuk V. N. Proizvodnye voyennye terminy v angliyskom yazyke. – Moskva, 1983. – 198 s.
7. Chistyuxina S. N. Mezhotraslevaya polisemiya v terminologicheskoy sisteme sovremennogo angliyskogo yazyka // Vestnik Universiteta Rossiyskoy akademii obrazovaniya, 2011, № 1. – S. 80–83.
8. Xolmonova Z., Saidxmedova O., Nurillayeva O. Issledovaniye kontseptsiy lingvokulturologii: monografiya. – Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.